

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11499550>

SURXONDARYODA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA ISHLARINI AMALGA OSHIRISHDA SUV TARMOQLARINING O‘RNI VA ROLI

Soatmo‘min Donayevich Bo‘riev

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti dotsenti

Annotatsiya: *Suv-hayot manbaidir. Suvsiz hayot bo‘lgan emas, bo‘lmaydi ham. Barcha tirik jonzoatlarning hayoti albatta suv bilan bog‘liq. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining janubiy hududi sanalmish Surxondaryo viloyatida ham olib borilgan keng qamrovli islohotlar o‘z natijasini berib, irrigatsiya va meliorsiya ishlarining rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Tan olish joizki, bugungi kunda Surxon-Sherobod vohasining gullab yashnashida suv tarmoqlarining o‘rni beqiyosdir. Mazkur maqolada viloyatning qishloq xo‘jaligida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari, aholi turmush tarzining yaxshilanishi va o‘shida, vohadagi mavjud suv omborlarining o‘rni va ish faoliyati to‘g‘risida yetarlicha to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *massiv, “Janubiy Surxon suv ombori”, “Sherobod aksionerlik jamiyati”, agrosanoat majmuasi, suv resurslari, Surxon-Sherobod vohasi, suv bilan to‘yinish, kanal, ariq, zovur, suv to‘g‘oni, irrigatsiya va melioratsiya ishlari.*

Kirish. Mamlakatimizning “Janub gavhari” shuningdek, serunum va hosildor vohasi hisoblanmish Surxondaryo viloyatida irrigatsiya va meliorsiya ishlarining amalga oshirilishi to‘g‘risida so‘z yuritilganda avvalom bor, Surxon-Sherobod vohasi sug‘orma dehqonchiligi tarixiga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Geografiya faniga oid manbalarda yozilishicha, viloyatimiz hududi Surxon-Sherobod vohasi deb nomlanadi. Chunki har ikkala daryo ham vohaning asosiy sug‘orish manbai bo‘lib kelgan. [5] Demak serunum Sherobod cho‘llarini suv bilan ta‘minlash masalasi shu bugunga kelib kun tartibiga qo‘yilayotgani yo‘q. Shu bois, bugunga kelib vohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida aholi turmush tarzida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, qishloq va shaharlarning obod maskanga aylanishi va qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar turining ortib borishi, bularning barchasi vohaning suv ta‘minoti bilan bog‘liqligiga borib taqalishi hech kimga sir emas, albatta. Shunday ekan maqolada Surxon-Sherobod vohasi sug‘orma dehqonchiligiga oid fikr va mulohazalar o‘rin olgan.

Natijalar. Butun viloyatimiz hududi, shuningdek Sherobod vohasining janubida bundan to‘rt ming yil avval ham ancha mukammal irrigatsiya tarmoqlari mavjud

bo'lganligi tarixdan ma'lum. Arxeologlar tomonidan Jarqo'tonda olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida bu hududda taraqqiyot ancha rivojlangani, ilm-fan va madaniyat gullab yashnaganligi, ajdodlarimiz dehqonchilik va chorvachilik bilan birga hunarmandchilik, temirchilik, zargarlik, kulolchilik bilan ham shug'ullanganliklari, o'sha davrda ham kishilar ipakdan turli matolar to'qiganligi, bug'doy donlarining qoldiqlari, hozirgi kunda hammani hayratda qoldirayotgan sopol buyumlar, shuningdek suv quvurlarining topilishi Surxon-Sherobod vohasining qadimda ham rivojlangan hududlardan biri ekanligidan dalolat berib turibdi[1,9,16]

Olingan manbalarga qaraganda, Kayron-Angor massivi (hozirgi Termiz tumanidagi "Mustaqillik" jamoa xo'jaligi va Angor qishlog'i hududidagi joylar) bog'u-roq'lardan iborat obod bir maskan bo'lgan va viloyatning janubiy hududlaridagi ekinzorlar mavjud suv chashmalaridan kanallar orqali sug'orilgan. Viloyatning markaziy qismidan joy olgan "Surxon" va "Komsomol 30 yilligi" (hozirgi Qumqo'rg'on tumanidagi "Besh qahramon" jamoa xo'jaligi) hududlari o'rtasidagi Iskandar (Makedon) ko'prigi Bandixon soyi ustidan suv o'tkazish uchun nov sifatida qurilgan va shu maqsaddagina foydalanilgan[2, 9,12]

Arab tarixchilari va geograflarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, Surxon daryosining (o'sha davrda bu daryo Chag'onrud deb atalgan) suvidan shunday foydalanganki, u yilning hamma faslida ham Amudaryoga kelib quyilavermagan. Shuningdek, Ispan va Xitoy sayyohlari, savdogarlari bu vohada dehqonchilik va chorvachilik g'oyat yuksalganligini tilga oladilar. Ayniqsa V-VIII asrlarda Sherobod daryosi, To'polang, Sangardak, Qoratog', Xonqa, Xo'jaipok daryolari suvlaridan voha yerlarini sug'orish uchun keng miqyosda foydalanilgan. Biroq VIII asrdan keyin, ayniqsa o'lkada mo'g'ullar bosqinidan so'ng, vohaning sug'orish tarmoqlari butunlay izdan chiqqan. Qurg'oqchilik, suvsizlik ofatlari mahalliy aholi turmush tarziga tez-tez rahna solib turgan. [4,18,20]

Ayniqsa, Hisor va Boysun tog'laridagi o'rmonlarning yo'q qilinishi, o'z vaqtida mavjud daryolar suvining kamayishiga olib keldi. Suvsizlik jabridan jafo chekkan voha xalqining asosiy mashg'uloti chorvachilik va lalmikor yerlarda don ekish bo'lib qoldi[3,19].

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni istilo qilishi natijasida Buxoro amirligida hayot keskin o'zgardi. Rossiya hukumati rahbarlarining topshirig'i va Buxoro amiri Abdul Ahadxonning roziligi bilan harbiy muhandis, kapitan B.Kastalskiy 1898 yilda Termiz shahri hududiga suv chiqarish uchun o'z loyihasini ishlab chiqdi. Suv inshooti Salovat qishlog'ining yuqori qismidan olinib, Termiz shahri va uning atroflarini, shuningdek, 40.000 desyatina zkin maydonlarini sug'orishga mo'ljallandi.

1909-1911 yillarda yana bir rus harbiy muhandisi A.G.Anan'ev tomonidan ham Surxon-Sherobod cho'llarini o'zlashtirish loyihasi ishlab chiqildi. Buxoro amiri Amir

Olimxon roziligi bilan 1912 yilning 23 fevralida A.G.Anan'ev va Buxoro amiri qushbegisi Mirzo Nasrulloboy o'rtasida shartnoma tuzildi. Ushbu shartnomaga muvofiq, Sherobod cho'lidan 72.000 desyatina yerga 99 yil muddatga Surxon daryosidan suv olib yangi yerlarni o'zlashtirish uchun rozilik berildi. Qorakamar atrofidan 1200 desyatina, Beshqo'ton massivi atrofidan 30.000 desyatina, hozirgi Angor tumani atrofidan 30.000 desyatina, Yangiariq atrofidagi 6000 desyatina yer shu shartnomaga kiritildi. A.G.Anan'ev suv uchun Buxoro amirligiga har yili dekabr oyida 100.000 so'm to'lab turadigan bo'ldi[8,13,14].

Unumdor yerlarga suv chiqarib katta foyda olish hirsini nafaqat ruslarni balki, inglizlarni ham qiziqtirardi. Shuning uchun ular chor hukumatidan Sharqiy Buxoroni (viloyatimiz hududlari o'sha paytlarda shunday atalgan) ijaraga berishni so'rashadi. Bu o'z vaqtida rus va inglizlarning "Sherobod hissadorlik jamiyati" ni tuzish bilan tugallanadi. Jamiyatning asosiy vazifasi viloyat yer osti va tabiiy boyliklarini o'rganishga qaratiladi. Biroq boshlanib ketgan talonchilik urushi bu ishlarni to'xtatishga majbur qiladi.

1910-1911 yillarda Zang kanalining ishga tushirilishi natijasida 1915 yilga kelib, butun Sherobod cho'llarida paxta maydoni 4400 gektarga yetkaziladi. Sug'oriladigan yerlar qariyb 20.000 gektarga, shu jumladan Sherobod cho'llaridagi suvli ekin maydoni 1200 gektar, paxtazor maydonlari esa 850 gektarni tashkil etgan.

Surxon-Sherobod vohasini o'rganish, o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va harakatlar Oktabr inqilobidan keyin ham davom ettiriladi. 1922 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU) yetakchi olimlari tomonidan 300.000 gektar maydonda ilmiy tekshirish ishlari olib boriladi. Natijada 1927 yilda professor N.A.Dimo tahriri ostida "Sherobod vohasi, Qiziriqdara va Surxon daryosining o'ng qirg'oq bo'ylari tuproqlari" deb nomlangan kitobi nashr etiladi. Bu ilmiy ishdan hozirgi Qumqo'rg'on tumanidagi "Besh qahramon" va Jarqo'rg'on tumaniga qarashli "Surxon" jamoa xo'jaliklarini loyihalashtirish va tashkil etishda foydalaniladi.

Sobiq Sho'ro davrida Surxon-Sherobod vohasini o'zlashtirishga yanada e'tibor qaratildi. Hazarbog' (1927y), Qumqo'rg'on (1932y), kanallari qazildi. Kakaydi (1931y), Zang kanallari (1966y) qayta ta'mirlandi. Uchqizil (1954y), Janubiy Surxon suv ombori (1967y), To'palang suv ombori, Oqtepa suv ombori, Degrez suv omborlari, Sherobod mashina magistral kanali (ShMMK), shuningdek Amu-Zang mashina magistral kanali (1973y), To'palang-Qoratog' (1974y) kanallari qurildi va ishga tushirildi[5,17,22]

Agar 1966 yilda viloyatimiz bo'yicha sug'oriladigan yer maydoni 183,3 ming gektar yerni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugunga kelib, 327 ming gektar yerdan oshib ketdi[6,11].

O‘zining uzoq o‘tmishiga ega bo‘lgan Surxon-Sherobod vohasi bugungi kunda tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib, obod bir maskanga aylangan holda gulgun chamanzorlarga aylanib bormoqda. Albatta bu yutuqlarning zamirida inson mehnati va faoliyati yotadi. Shunday ekan, jonajon diyorumizning bir go‘shasi hisoblangan Surxon-Sherobod vohasini yanada rivojlantirish va bog‘u-rog‘larga aylantirish barchamizning fidokorona mehnatimiz evaziga bo‘lmoqligini aslo unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mustaqillik maydonida bitta marjon Sherobod. “Surxon tongi” ro‘znomasi, 1993 yil, 27 iyul, 2-bet
2. Sherobod cho‘lini o‘zlashtirish tarixidan “Lenin bayrog‘i” ro‘znomasi, 1966 y, 6 noyabr, 3-bet
3. Bizning ko‘hna go‘zal vohamiz. “Lenin bayrog‘i” ro‘znomasi, 1975y, 8 yanvar, 3-bet
4. Bobolar bosib o‘tgan yo‘l. “Surxon tongi” gazetasi, 1995y, 8 yanvar, 3-bet
5. Ro‘ziev A, Mirzaev Sh, Borataliev U. Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuasini rivojlantirish masalalari. T. “Jayhun” nashriyoti, 1977y, 38-39 betlar
6. Suv ekinning qoni. “Surxon tongi” gazetasi, 1995y, 3 mart, 2-bet
7. Хужаназаров, А. З., & Алламуратов, Ш. А. (2021). Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы. Бюллетень науки и практики, 7(2), 405-410.
8. Хужаназаров, А. З., & Алламуратов, Ш. А. (2019). Тиббиётга назар: муаммо ва ечимлар. Взгляд в прошлое.–2019, 24.
9. Tursunov, S., Eshboev, K., Tukhtaev, A. K., & Khuzhanazarov, A. Z. (2019). Plates from the history of Kumkurgan. Tashkent: yangi nashr.
10. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 151-154.
11. Жумаева, Ш. Ч. (2020). Развитие и сохранение аутентичности как условие естественного образования человека. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4), 46-49.
12. Chorievna, J. S. (2022). Livestock Reforms in Surkhandarya. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 4, 68-70.

13. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
14. Буриев, С. (2021). Марказий Осиёда трансчегаравий сув ресурсларидан фойдаланиш омиллари. *Общество и инновации*, 2(2), 34-44.
15. Дусназарова, М. И. (2020). Система исторических понятий как основа понимания истории Узбекистана. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (4), 19-22.
16. Khursandovna, K. G. (2022). From the history of the peculiar development of the national culture of the Surkhandarya people. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 141-146.
17. Худайбердиева, Г. Х., & Алланазаров, М. М. (2020). Ёшларни ғоявий тарбиялашнинг усуллари, шакллари ва воситалари. *Инновации в педагогике и психологии*, (SI-2№ 1).
18. Xudayberdiyeva, G. X. (2019). Our national abilities. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1), 24-27.
19. Allamuratov, S. A., & Dzhuraeva, U. S. (2021). Irrigation and reclamation works in the surkhan oasis.
20. Джураева, У. (2021). Термиз дарё порти тарихи. *Общество и инновации*, 2(5/S), 443-449.
21. Буриев, С. Д. (2022). Факторы Использования Трансграничных Водных Ресурсов В Центральной Азии. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(10), 182-192.
22. Donayevish, B. S. (2022). Faktor in the of Transboundary Water Resources in Central Asia. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(10), 162-171.